



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

**2022- YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3 290,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 111,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,2 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 13,6 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning– 7,5 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 74,8 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 20,7 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-Fevral

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-fevral

FHI,% da



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 133,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,2 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-fevral

93,7 %

2022-yil yanvar-fevral

95,2 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 13,3 % (14,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 13,8 % (12,4 %) va quyi texnologiyalisi – 67,9 % (65,9 %)ni tashkil etdi.

■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 8,6 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 210,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 30,6 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 115,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,0 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,0 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




O'simlik yog'i (tozalangan)




Paxta tolasi




Tamaki



Pivo



Yumshoq bug'doy va spelta uni



2022- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 13,7 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 23,5 % ni tashkil qilgan), 13,1 ming tonna paxta tolasi (157,5 %) ishlab chiqarishda o'sish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	8,3	13,1	157,5
Pivo, ming litr	2151,0	1942,0	90,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	29,6	28,2	95,1
O'simlik yog'i (tozalangan) tonna	9193	5026	54,7
Konyak spirti – litr 100 % spirt	160,1	64,0	40,0
Tamaki, mln dona	1274	1287	101,1
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	99,3	100,9	101,6
Paxta tiviti tonna	1082,6	1521,0	140,5

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 5,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 118,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 8,6 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 210,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 270,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,0 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 43,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 957,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 111,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 110,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 791,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 92,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 %, fizik hajm indeksi 134,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 126,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 38,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 92,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 21,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 112,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	74375,7	73508,4	-867,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1278702	2000391	721689

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6 501,8	7 701,8	1 200,0
Xavsiz chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3891,8	3496,3	-395,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1 690,8	1 146,0	-544,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 118,5 % ni va Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar- 32,2 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 392,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 139,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 72,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-fevral

39,2%

2022- yil
yanvar-fevral

34,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-fevral

60,8%

2022- yil
yanvar-fevral

65,8%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,8 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 0,8 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 41,5 % ni, Urgut tumani 11,7 % ni, Samarqand tumani 9,4 % ni, Jomboy tumani 5,7 % ni hamda Ishtixon tumani 4,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (139,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Ishtixon tumanida (297,2 %) hamda Kattaqo'rg'on tumanida (290,2 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 41,3 % shuningdek, Urgut 11,7 %, Samarqand 9,4 % ni, Tayloq tumanlarida 8,8 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

1 292,7 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-fevral

1 827,8 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-fevral

2 395,5 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-fevral



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil 101,9 %

2021- yil 110,1%

2022 yil 139,8 %

Yanvar - Fevral

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 46,2 % shuningdek, tumanlardan Urgut 16,0 %, Tayloq 7,5 % ni, hamda Ishtixon tumani 6,2 % ni tashkil etdi.

443,7 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-fevral

579,2 mlrd. so'm





2021- yil yanvar-fevral

749,1 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-fevral



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





o'sish sur'ati


mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,9 % ni, Tayloq tumani esa 11,4 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,8 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 13,0 % ni, Urgut tumani esa 9,1 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2020- yil

1 292,7 mlrd. so'm

2021 yil

2 665,4 mlrd. so'm

2022- yil

3 290,4 mlrd. so'm



2020- yil

102,5 %

2021- yil

104,0 %

2022- yil

111,4 %

Kattaqo'rg'on sh.

56,6
21,8

Samarqand sh.

102,6 1376,0

Toyloq

97,5
211,4

Urgut

105,8
299,1

Nurobod

82,6
12,4

Samarqand

112,0
261,8

Paxtachi

102,4
107,8

Pastdarg'om

116,8
109,6

Payariq

114,8
82,5

Narpay

110,6
97,4

Qo'shrabot

80,7
6,9

Kattaqo'rg'on

143,2
89,8

Ishtixon

116,7
109,1

Jomboy

134,1
428,6

Bulung'ur

110,6
45,6

Oqdaryo

74,2
31,0

FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 149,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,9 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Nurobod tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (70,8 %), Urgut tumanida (70,7 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (11,4 %), Urgut (13,4 %), Tayloq (15,7 %), Paxtachi (17,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 233 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 731 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,0 %) Samarqand shahriga, 1 180 tasi (14,3 %) Urgut tumaniga, 756 tasi (9,2 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

323 dona

2021- yil

356 dona

2021- yil

288 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

6 188 dona

2021- yil

7 294 dona

2022- yil

8 233 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan